

USTRUSHONANING SHAHARSOZLIK MADANIYATI SHAKLLANISHI (ANTI-K DAVRIDAN TO O'RTA ASRLARGACHA)

*O'zbekiston amaliy san'at va
hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi*
Djalalova Gavxar Tashpulatovna

Anatatsiya. Ushbu maqola Ustrushona hududida shaharsozlik xususiyatlar va antik davridan to o'rta asrlargacha bo'lgan shaharlar misolida o'rganilgan.

Annotation. This article examines the features of urban planning in the Ustrushona region, based on the example of cities from the ancient period to the Middle Ages.

Аннотация. В данной статье исследуются особенности градостроительства на территории Уструшаны на примере городов от античного периода до средневековья.

Kalit so'zlari: Qaliyatepa, Jizzax, arxeologiya, qadimgi qo'rg'on, qazilmalar, madaniyat, an'analar, meros, Markaziy Osiyo, yodgorlik

Key words: Qaliyatepa, Jizzakh, archaeology, ancient settlement, excavations, culture, traditions, heritage, Central Asia, monument.

Ключевые слова: Калиятепа, Джизак, археология, древнее поселение, раскопки, культура, традиции, наследие, Средняя Азия, памятник.

O'tmishni o'rganish, targ'ib etish hamda ma'lum tarbiya sohasida undan keng foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik bizga qadim tariximiz va boy madaniy manaviyatimizni o'rganishga imkoniyatlar eshigini ochdi. O'rta Osiyo uning markaziy qismida joylashgan Ustrushona tarixini o'rganishda ham mustaqillik yillarda ko'plab yangiliklar amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston hududidagi madaniy o'lkalar tarixini o'rganish yanada faollashib, Qadimgi Baqtriya, Xorazm, Sug'd, Choch, Farg'ona va Ustrushona hududidagi shaharlarning shakllanish tarixi, taraqqiyot bosqichlari va ulardagi nodir

san'at namunalari o'rganildi. Bu hududdagi ko'pgina shaharlarning yoshi YUNESKO rahnamoligida xalqaro miqyosda rasmiy nishonlandi. Bir qator tarixiy-madaniy vohalar va u yerda joylashgan qadimiy shaharlarda esa ilmiy tadqiqotlarni jadal davom ettirish va ularni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish vazifasi dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo'yilgan.

Ma'naviy barkamollik milliy g'urur bilan bog'liq bo'lib, eng beqiyos g'urur va iftixor tuyg'ularidan biri bu shubhasiz, o'zining buyuk tarixi, ota-bobolari madaniy me'rosidan faxrlanish hisoblanadi. Bu holat, ya'ni tom ma'nodagi yashnab turish esa jamiyat a'zolariga haqiqiy tariximizni qanday yetkaza olishimizga ham bog'liq hisoblanadi. **Buni chuqur anglagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev, 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida** "Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan holi bo'lishi zarur...", deb ta'kidlagan edilar.

Ustrushona bugunda O'zbekistonning Jizzax va Sirdaryo, Tojikistonning Sug'd (avvalgi Leninobod) viloyatlari, Qirg'izistonning Laylak tumani hududlarini o'z ichiga olgan va janubdan Turkiston tizmalari bilan chegaralangan hududlardan iborat. Ustrushona hududda olib borilgan arxeologik qidiruv va qazuv ishlari jarayonida, turli davrlarga oid ko'plab moddiy madaniyat yodgorliklari aniqlangan bo'lib, antik davrdan to o'rta asrlargacha bo'lgan qatlamlarda urbanizatsiya belgilari aniqlangan. Antik davrida yunon madaniyati hayotiga emas balki qurilish sohasiga yetarlicha ta'sir ko'rsatdi. Aleksandriya Esxata (Chekka Aleksandriya) antik davriga mansub shaharsozlik namunalari aks etishda yaqol misol bo'ladi. Yozma manbalarda Aleksandr Makedonskiy tomonidan Sirdaryo (Tanais) bo'yida 17 (ba'zi manbalarda 20) kun ichida barpo etilgan va Chekka Aleksandriya deb atala boshlangan shahar, asosiy mo'ljal nuqtasi qilib olingan. N.N.Negmatov, A.I.Bilalov, T.V.Belyaevlar tomonidan XX asrning 50 - 80 yillar oralig'ida Xo'jand shahri arkida olib borilgan

qazuv tadqiqot ishlari amalga oshirishdi. Arxeologik topilmalar asosida Chekka Aleksandriyani Xo'jand o'rniga joylashgan deya fikrga kelishdi.

Kiropol (Kurkat). Ustrushonadagi yozma manbalarda tilga olingan eng yirik muhim siyosiy va ma'muriy ahamiyatga ega bo'lgan Kiropol shahrining joylashgan o'rni masalasidagi tortishuvlar mutaxassislar o'rtasida XIX asrning oxiridan bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda. A.A.Gritsina «Kiropol-Kurkat qishlog'i atrofi» fikri yuzasidan ba'zi mulohazalar bildirib, xususan Shirin va so'nggi yillarda aniqlangan Chig'moytepa shahristoni bu masalada yangi ma'lumotlar berishligini taxmin qildi¹. Kiropol shahri o'rniga davogarlik qilayotgan Mug'tepa (O'ratepa) yodgorligida XX asrning 60-yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida milodiy eradan oldingi IV-II asrlarga oid madaniy qatlamlar aniqlanadi². Ammo N.Negmatov va bir guruh boshqa tadqiqotchilar tomonidan qayta-qayta «Kiropol-Mug'tepa» fikri ta'kidlab kelinganligiga qaramay³ Mug'tepa yodgorligida XX asrning 70-80-yillari davomida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bu yerda qadimiy shahar belgilarini beradigan artefaktlar topilmaydi va hozirga qadar bu masala ochiq qolmoqda.⁴ Boshqa bir qator tadqiqotchilar esa N.N.Negmatovning «Kiropol-Mug'tepa» haqidagi fikriga nisbatan betaraf munosabat bildirib, ya'ni bu fikrni inkor etmagan holda, to'la qo'shilmay ham kelmoqdalar.⁵ XX asrning 80-yillarda aniqlangan Nurtepa yodgorligining o'rganila boshlanishi bilan tadqiqotchilarning o'rtasida «Kiropol-Nurtepa» fikriga moyillik paydo bo'ldi.⁶ Asosan T.V.Belyaeva tomonidan bildirilgan bu fikrga tadqiqotchilar o'rtasida nisbatan xayrihohlik mayli ko'proq sezilmoqda.

¹ Гритина А.А. Археологические памятники Сырдаринской области. - Ташкент.: 1990. -С. 16.

² Ранов В.А., Салтовская Е.Д. О работах Ура-Тюбинского отряда в 1959г. /АРТ. Вып.VII. –Душанбе, 1961. -С. 108-128.; Негматов Н.Н., Салтовская Е.Д. О работах Ходжентско-Уструшанского отряда в 1960г./АРТ. Вып.VIII. –Душанбе. 1962. -С. 69

³ Негматов Н.Н. Култура первобытной эпохи Таджикистана. /Таджикистан на пути к урбанизации. – Душанбе; Дониш, 1982. -С. 81; Негматов Н.Н. Некоторые проблемы археологии Северного Таджикистана и Средней Азии /АРТ. Вып.XX (1980). -Душанбе, Дониш, 1987. – С. 286-287.

⁴ Рахимов Н.Т. История Ура-Тюбе по археологическим данным./АҚД. - Самарканд, 2004. – С. 42.

⁵ Гритина А.А. Северная Уструшана в середине I тыс. до н.э. – XIII в. н.э. (археолого-топографическое исследование); АҚД.-Самарканд. 1990. – С. 16.

Ilk o'rta asrlarda Ustrushona hududidagi Eftanlar va turk xoqonligi tarkibiga kirgan. Bu davrda buyuk ipak yo'li tarmoqlarini ma'lum bir tarmog'i o'tganligi va savdo – sotiq sababli shaharlar tezda rivojlandi. Buni biz arxeologik tadqiqotlarda topilgan yodgorliklar topilmalarda isbotlandi. Bu davrda bir qancha yirik shaharlar mavjud bo'lgan.

Eski Xovos yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida, mil. avv. V-IV asrlarga oid me'moriy qoldiqlar o'rni aniqlandi. Afsuski, sizot suvlarining qazish jarayoniga, ya'ni shaharning eng qadimgi davrlariga oid madaniy qatlamlarni o'rganishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday bo'lsa-da, ushbu sizot suvlari orasidan olingan sopol bo'laklari Farg'ona vodiysidagi Eylaton madaniyatida qayd qilingan topilmalarga o'hshash bo'lib, ular tadqiqotchilar tomonidan mil. avv. V-IV asrlarga taalluqli ekanligi aytib o'tilgan. So'nggi yillarda yodgorlikning shahriston qismida olib borilgan arxeologik qazishmalar tufayli bu yerdan eramizdan oldingi III-II asrlarga oid turar-joy o'rinlari, mudofaa devorlarini qoldiqlari va boshqa topilmalar ochib o'rganildi. Hamda ular qadimgi madaniy qatlamlar ustiga qurilganligi aniqlandi. Qo'lga kiritilgan arxeologik materiallarining ilmiy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bu yerda shaharga xos bo'lgan xususiyatlar, ya'ni arki a'lo, mudofaa devori bilan o'rab olingan shahriston, mudofaa qurilishi, aholi yashaydigan turar-joy massivlarining mavjudligi va topilgan moddiy madaniyat namunalari Eski Xovos yodgorligini shahar toifasiga kiritish uchun yetarli manba bo'lib xizmat qiladi.

Kultepa (Sovot). Ustrushona xududida ilk o'rta asrlardan to mo'g'ullar istilosiga qadar bo'lgan davrda shaharsozlik an'analari qasr va ko'shklar qurilish arxitekturasida rivojlanadi. Bunga turli tarixiy omillar sabab bo'ldi. Ushbu omillarni o'rganish uchun Ustrushonadagi qasr va ko'shklar arxitekturasiga doir materiallarni ko'rib chiqish lozim. Ustrushona davlatining cho'l rustaklaridan biri bo'lgan Savat xududida ham juda ko'plab shunday yodgorliklar saqlangan. Savat – Buyuk Ipak Yo'lining Sug'dan Farg'onaga ketish yo'lida joylashgan bo'lib, u yerdan yo'l uch tarmoqqa ajralgan. Birinchi yo'l Farg'onaga yo'nalgan, ikkinchi yo'l Xovos orqali Yettisoy tomonga, uchinchi yo'l esa Ustrushona poytaxti Bundjikat tomonga yo'nalgan. Bu to'g'rida

akademik A. Muhammadjonov ta'rif berib, Savat atamasi forsha “se” – uch, “bat” – ravot, ya'ni, karvonsaroy degan ma'noda va so'zning transkripsiyasi o'zgarishi natijasida Savat atamasi kelib chiqqan deydi. Ayni shu karvonsaroylardan biri A.A. Gritsina tomonidan 1987 yilda Kultepa yodgorligi xududida ochib o'rganilgan⁷. Ustrushona xududidagi o'rta asr qasrlari xususida so'z ochish uchun Kultepa yodgorligidagi IX-XI asrlarga oid yodgorlikda olib borilgan tadqiqot natijalaridan chiqarilgan xulosalarga murojat qilamiz. Qazuv natijasida qasrning shimoliy-sharqiy qisimidagi to'rtta xona va koridorlar ochib o'rganildi. Yodgorlikni qazish davomida aniq bo'ldiki bu yerda to'rt marotaba istiqomat davri bo'lgan. S.Xmelniskiyning fikricha O'rta Osiyo xududidagi ilk o'rta asrlar davri qasrlari to'rtta tipga ajraladi⁸. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, V-VIII asrlar davomida shahar yoki shahardagi uy emas, balki alohida turuvchi qasr yoki zodagon-dehqonning mustahkamlangan ko'shki O'rta Osiyoning barcha o'troqlashgan, dehqonchlik yerlaridagi monumental qurilshdagi eng ommaviy va xarakterli ob'ekt bo'lgan. Ushbu davr uchun odatiy hisoblangan istehkomlangan, yuqoriga ko'tarilgan ko'shkning uning poyida joylashgan qishloqning o'zaro uyg'unlashuvi ilk o'rta asrlarga oid shahar tuzilmasining o'ziga xos tomoni bo'lgan. Qasr yoki ko'shk shahar istehkomiga aylanib, unda hukmdor qarorgohi bo'lgan. Bunday qasrlardagi mudofaa tizimlari, turar joylar, hovli va xo'jalik qurilishlarning mutanosibligi turlicha bo'lgan, ammo barcha hollarda aynan markaziy bino – qasr yoki ko'shk o'zining tashqi ko'rinishi va ichki tuzilmasi bilan o'z davri me'morchiligining o'ziga xos tomonlarini o'zida aks ettirgan va shahardagi boshqa inshootlarga ko'zga ko'rinarli ta'sir o'tkazgan. Bunday ta'sir qasrlarning ijtimoiy funksiyasi bilan belgilangan, chunki qasr o'zida badavlat uy va hukmron markaz sifatlarini jamlab, ham saroy majmualari, ham oddiy shahar va qishloq uylarining muhim xususiyatlarini birlashtirishi lozim bo'lgan.

⁷ Материалы IX- первой половины XI века с городища Культепа.// Грицина А.А. Археология Узбекистана. №1. -Самарканд, 2010. – С 96-104.

⁸ С. Хмельницкий. К вопросу классификации раннесредневековых замков Средней Азии // ИМКУ 32. 2001. – С.120-132.

Jizzax vohasidagi eng qadimiy va yirik shahar madaniyati markazlaridan biri **Qaliyatepa** bo'lib, u Sangzor daryosining quyi oqimida joylashgan. Daryo orqali Qaliya va Qang'li shohariqlariga suv yetkazib berilgan. Ko'p yillik arxeologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, Sangzorning quyi oqimida joylashgan Jizzax vohasi arxeologik jihatdan qadimdan Qaliyatepa va U'rda majmualariga bo'linadi. 1990–2000-yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Qaliyatepa hududi ilk shahar hayoti va kichik ko'rinishdagi shaharlashuv jarayonlarining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Shuning uchun ham vohaning yirik va qadimiy markazlari sifatida aynan shu maskanlardan shahar hayoti boshlangan, deb hisoblanadi. So'nggi yillarda Qaliyatepaning madaniy qatlamlari arxeologlar e'tiborini yanada kuchaytirdi. Sababi, Ustrushona hududida XIV–XVI asrlarga oid moddiy madaniyat deyarli o'rganilmagan edi. Shu bois 2021-yilda (aprel–may hamda oktyabr oylarida) Qaliyatepa shahristonida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Samarkand arxeologiya instituti Jizzax ekspeditsiyasi tomonidan keng qamrovli qazish ishlari olib borildi. Arxeologik tadqiqotlarning dastlabki bosqichi 1981-yilda T. Shirinov rahbarligida O'zbekiston FA Arxeologiya institutida o'tkazilgan bo'lib, shahristonning janubiy qismida maydoni 45x65 m bo'lgan hudud ochilib, u to'rtburchak shaklidagi rejaga ega shahar qoldiqlaridan iboratligi aniqlangan. Bu yerda shahriston shimoliy devorlari, janubiy tomondagi markaziy ko'chalar, janubiy devor bilan bog'langan inshootlar, saroy va hovli qoldiqlari, shuningdek, qisman bog'-park majmualari aniqlangan. Keyingi tadqiqotlarda esa shahristonning umumiy maydoni taxminan 10,9 x 9,1 kvadrat metr bo'lib, bu yirik markazlardan biri ekanligi tasdiqlangan. Dastlabki bosqichda mudofaa devorlari, ichki hovli va ibodatxonalar o'rganilgan. 2021-yildagi qazishlar natijasida esa yangi turar-joy xonadonlari, hovlilar, xonalar devorlari ochilib, ilmiy jihatdan boy ma'lumotlar qo'lga kiritildi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixidagi muhim tarixiy voqealar bilan bog'liq tarixiy jarayonlar kechgan Ustrushona hududi Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan, bu hududning shaharsozlik madaniyatining o'ziga xos, boy va betakror jihatlari ochib berilmoqda. Arxeologiklar Eski Xovos,

Qaliyatepa, Kultepa va Kurkat yodgorliklarda tadqiqotlar olib borishda. Natijada, Topilmalar va yodgorliklar arxitekturasini o'ziga xos xususiyatlardan xulosa qilishimiz mumkin – ku, Ustrushonada shaharsozlik to'laqonlik shakllangan.

Foydalanilagan adabiyotlar ro'yxati

1. Материалы IX- первой половины XI века с городища Культепа.// Грицина А.А. Археология Узбекистана. №1. -Самарканд, 2010. – С 96-104.
2. С. Хмельницкий. К вопросу классифкации раннесредневековых замков Средней Азии // ИМКУ 32. 2001. – С.120-132.
3. Грицина А.А.Северная Уструшана в середине I тыс. до н.э. – XIII в. н.э. (археолого-топографическое исследование); АКД.-Самарканд. 1990. – С. 16.
4. Беляева Т.В. К исторической топографии городов Уструшаны. /Древняя и средневековая археология Средней Азии. – Ташкент; Фан. – С. 82-84.
5. Пардаев М.Х. Северо–западная Уструшана в эпоху раннего средневековья (по материалам нижнего течение Сангзара): Автореф. дис....канд. ист. наук. – Т.: 1995;